



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'ljALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	



TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kreditlash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, kredit portfeli sifati, qarz oluvchining to'lovga layoqatligi, kredit jarayonining tezkorligi va raqamlashtirish darajasi tizimlashtirilgan. Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kompleks baholash uchun moliyaviy, risk, operatsion va mijozga yo'naltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanish taklif etilgan. Shuningdek, kredit skoringini takomillashtirish, raqamli kreditlash kanallarini kengaytirish, riskka asoslangan narxlash va kreditdan keyingi monitoringni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlari, bank krediti, kreditlash samaradorligi, kredit portfeli, kredit riski, NPL, kredit skoringi, raqamli kreditlash, monitoring.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки эффективности кредитования субъектов предпринимательства в коммерческих банках. Систематизированы факторы, влияющие на эффективность кредитования, качество кредитного портфеля, платежеспособность заемщика, оперативность кредитного процесса и уровень его цифровизации. Для комплексной оценки кредитования субъектов предпринимательства предложено использовать финансовые, риск-ориентированные, операционные и клиентоориентированные показатели. Также разработаны практические рекомендации по совершенствованию кредитного скоринга, расширению цифровых каналов кредитования, внедрению риск-ориентированного ценообразования и усилению посткредитного мониторинга.

Ключевые слова: коммерческие банки, субъекты предпринимательства, банковский кредит, эффективность кредитования, кредитный портфель, кредитный риск, NPL, кредитный скоринг, цифровое кредитование, мониторинг.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of assessing the effectiveness of lending to business entities in commercial banks. The factors affecting lending efficiency, credit portfolio quality, borrowers' creditworthiness, the speed of the lending process, and the level of digitalization are systematized. The use of financial, risk-based, operational, and customer-oriented indicators is proposed for a comprehensive assessment of lending to business entities. Practical recommendations are also developed to improve credit scoring, expand digital lending channels, implement risk-based pricing, and strengthen post-loan monitoring.

Keywords: commercial banks, business entities, bank lending, lending efficiency, credit portfolio, credit risk, NPL, credit scoring, digital lending, monitoring.

KIRISH

Tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi va investitsion faolligining oshishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, bandlik va daromadlar o'sishining muhim omillaridan biridir. Tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'larini to'ldirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, yangi loyihalarni moliyalashtirish hamda innovatsiyalarni joriy etishda muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Bank kreditlash tizimining samaradorligi faqat ajratilgan kreditlar hajmi bilan emas, balki kreditlarning qaytuvchanligi, muammoli kreditlar darajasi, kredit qarorini qabul qilish tezligi, qarz oluvchining moliyaviy holatini to'g'ri baholash, kredit resurslarining narxi va kreditdan keyingi monitoring sifati bilan ham belgilanadi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotini kompleks baholash va bank hamda qarz oluvchi manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.



O'zbekistonda bank tizimini transformatsiya qilish, xususiyl sektorning moliyaviyl resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bank xizmatlarini raqamlashtirish va kredit risklarini boshqarish sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar kreditlash jarayoniga yangi talablarni shakllantirmoqda. Mazkur sharoitda tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish, raqamli ma'lumotlardan foydalanish va kredit jarayonlarini avtomatlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholashning kompleks yondashuvini shakllantirish hamda uni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiyl-amaliyl takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank kreditlashining iqtisodiy mohiyati va kredit risklarini boshqarish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. F.S. Mishkin kredit bozorida axborot assimetriyasi, salbiyl tanlov va ma'naviy tavakkalchilik bank kredit qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.¹ Shu nuqtayi nazardan, qarz oluvchi to'g'risidagi axborotning to'liqligi va ishonchliligi kreditlash samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. J.F. Sinkey tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishda daromadlilik va risk o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini asoslaydi. Kreditlash hajmining keskin kengayishi bank daromadlarini oshirishi mumkin, biroq qarz oluvchilarni baholash va monitoring mexanizmlari yetarli bo'lmasa, kredit portfeli sifatining yomonlashishiga olib keladi.²

Mahalliy tadqiqotlarda bank krediti, kreditlash tamoyillari, kredit portfeli va kredit risklarini boshqarishning nazariyl-uslubiy jihatlarini yoritilgan. Zamonaviyl sharoitda ushbu yondashuvlarni raqamli skoring, real vaqt rejimidagi monitoring, pul oqimlarini tahlili va riskka asoslangan kredit narxlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

J. Stiglitz va A. Weiss kredit bozorida axborot assimetriyasi sharoitida foiz stavkasini oshirish har doim ham bankning kutilayotgan daromadini ko'paytirmasligini, aksincha, riskli qarz oluvchilar ulushini oshirishi mumkinligini asoslagan. Ushbu yondashuv tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda narxlash bilan bir qatorda sifatli skoring va seleksiya mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi.³

Basel qo'mitasining kredit riskini boshqarish tamoyillarida kredit siyosati, qarz oluvchini dastlabki baholash, limitlar, kredit ma'murchiligi va uzluksiz monitoring yagona risk-boshqaruv jarayoni sifatida qaraladi. Shu sababli kreditlash samaradorligi kredit berilgan paytdagi natija bilan emas, kreditning butun hayotiy sikli davomida baholanishi lozim⁴.

Jahon banki tadqiqotlarida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi asosiy cheklovlar sifatida garov yetishmasligi, axborot nomutanosibliyi, moliyaviyl hisobotlar sifati va tranzaksiyon xarajatlar qayd etiladi. Raqamli moliyaviyl xizmatlar va alternativ ma'lumotlardan foydalanish ushbu cheklovlarning bir qismini yumshatish imkonini beradi.⁵ Mahalliy bank amaliyotiga oid tadqiqotlarda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kreditga layoqatlilikni baholash, muammoli kreditlarni kamaytirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish masalalari muhim yo'nalish sifatida qaraladi.⁶ Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholashda ushbu yo'nalishlarni yagona integratsiyalashtirish tizimga birlashtirish, ya'ni risk, rentabellik, operatsion tezkorlik, mijoz tajribasi va kreditning biznes natijasiga ta'sirini birgalikda o'lchash zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiyl abstraksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish hamda ekspert-mantiqiy baholash usullaridan foydalanildi. Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligi bank nuqtayi nazaridan kredit portfeli sifati va daromadlilik, qarz oluvchi nuqtayi nazaridan moliyalashtirishning qulayligi va tezkorligi, iqtisodiy nuqtayi nazardan esa kreditning biznes faolligi va investitsiyaga ta'siri orqali baholandi.

1 Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th ed. Harlow: Pearson, 2022.

2 Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. 6th ed. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall/Pearson, 2002.

3 Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71, No. 3. P. 393–410. DOI: 10.1257/aer.71.3.393.

4 Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. Basel: Bank for International Settlements, 2000. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs75.htm> (accessed: 10.08.2026).

5 World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions to Unlock Sources of Capital. Washington, D.C.: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/about/partners/the-world-bank-group-and-private-sector/smes> (accessed: 10.08.2026)., World Bank. Global Financial Development materials on SME finance and financial inclusion. Washington, D.C.: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/gfdr> (accessed: 10.08.2026).

6 Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017., Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M. va boshqalar. Bank ishi. Toshkent, 2021.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholashda bitta ko'rsatkichdan foydalanish yetarli emas. Kreditlash natijadorligi kreditning qaytuvchanligi, risk darajasi, qaror qabul qilish muddati, kreditning qiymati, kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishi va qarz oluvchi biznesining moliyaviy natijalari bilan birgalikda baholanishi lozim (1-jadval).

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini baholash ko'rsatkichlari⁷

Ko'rsatkich	Mazmuni	Baholash yo'nalishi	Kutilayotgan boshqaruv qarori
NPL darajasi	Muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi	Kredit riski	Skoring va monitoringni kuchaytirish
Kreditni ko'rib chiqish muddati	Arizadan qarorgacha sarflangan vaqt	Operatsion samaradorlik	Jarayonlarni avtomatlashtirish
DSCR / pul oqimi qoplamasi	Qarz xizmatini pul oqimi bilan qoplash darajasi	To'lovga layoqatlilik	Limit va muddatni moslashtirish
Kredit rentabelligi	Kreditdan olinadigan riskka mos daromad	Moliyaviy samaradorlik	Riskga asoslangan narxlash
Qayta murojaat ulushi	Bankdan takroriy kredit oluvchi bizneslar ulushi	Mijoz sodiqligi	Individual mahsulotlarni kengaytirish

Jadvaldan ko'rinadiki, kreditlash samaradorligini kompleks baholash bankning faqat kredit hajmini emas, balki kredit portfeli sifati, qarz oluvchining pul oqimi, kredit jarayonining tezkorligi va riskka mos daromadlilikni ham bir vaqtda kuzatishini talab etadi. Bunday yondashuv kredit hajmini oshirish bilan bir qatorda uning sifatini saqlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval

Kreditlash amaliyotidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo'nalishlari⁸

Mavjud muammo	Taklif etilayotgan yondashuv	Kutilayotgan samara
Moliyaviy hisobotlarga haddan tashqari tayanish	Bank aylanmalari, soliq va tranzaksion ma'lumotlarni integratsiya qilish	Qarz oluvchini aniqroq baholash
Kredit qarorining uzoq davom etishi	Raqamli ariza va avtomatlashtirilgan skoring	Ko'rib chiqish muddati qisqaradi
Standart foiz stavkasi yondashuvi	Riskga asoslangan narxlash	Risk va daromadlilik muvozanatlashadi
Kreditdan keyingi monitoringning sustligi	Erta ogohlantirish indikatorlari va avtomatik monitoring	Muammoli kreditlar ehtimoli pasayadi
Bir xil kredit mahsulotlari	Biznes segmentlari bo'yicha individual mahsulotlar	Mijoz ehtiyojiga mos moliyalashtirish kengayadi

Taklif etilayotgan yondashuv kreditlash jarayonini ma'lumotlarga asoslangan modelga o'tkazishni nazarda tutadi. Bunda bank mijozning faqat tarixiy moliyaviy hisobotlarini emas, balki uning real pul oqimlari, hisobvaraqlardagi aylanmalar, to'lov intizomi va biznes faolligini ham hisobga oladi. Natijada kredit qarorining aniqligi va tezligi oshadi. Kreditlash samaradorligini oshirishda raqamli kreditlash alohida o'rin tutadi. Raqamli ariza, masofaviy identifikatsiya, avtomatik ma'lumot yig'ish va skoring tizimlari kichik biznes uchun kredit olishdagi vaqt va tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, avtomatlashtirish kredit riskini nazorat qilish talablarini susaytirmasligi, aksincha, ma'lumotlar sifati va erta ogohlantirish mexanizmlari bilan mustahkamlanishi kerak.

⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

⁸ Manba: muallif ishlanmasi.



Riskka asoslangan narxlash mexanizmi ham kreditlash samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishidir. Bunda foiz stavkasi va boshqa kredit shartlari qarz oluvchining risk profili, pul oqimlari barqarorligi, ta'minot sifati va kredit tarixiga mos ravishda differensiallashtiriladi. Bu yaxshi moliyaviy intizomga ega tadbirkorlik subyektlari uchun rag'bat yaratadi va bankning riskka mos daromadlilikini yaxshilaydi (3-jadval).

3-jadval

Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning integratsiyalashgan samaradorlik modeli⁹

Blok	Asosiy indikatorlar	Monitoring davriyligi	Maqsad
Risk	NPL, kechikish, PD, DSCR	Doimiy/oylik	Kredit sifati
Moliyaviy	Marja, riskka mos rentabellik	Oylik/choraklik	Daromadlilik
Operatsion	Qaror vaqti, avtomatlashtirish ulushi	Haftalik/oylik	Tezkorlik
Mijoz	Qayta murojaat, shikoyatlar, qoniqish	Choraklik	Mijoz sodiqligi
Biznes natijasi	Aylanma, tushum, ish o'rinlari dinamikasi	Choraklik/yillik	Kreditning iqtisodiy natijasi

Integratsiyalashgan modelning afzalligi shundaki, kredit samaradorligi kredit ajratilgan paytda emas, uning butun hayotiy sikli davomida kuzatiladi. Risk, moliyaviy, operatsion va mijoz ko'rsatkichlarini yagona monitoring panelida birlashtirish bank rahbariyatiga muammolarni erta aniqlash va tegishli choralarni tezkor belgilash imkonini beradi (3-jadvalga qarang).

KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH FORMULALARI

Kreditlash samaradorligini miqdoriy baholash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq: $NPL = \text{Muammoli kreditlar} / \text{Jami kredit portfeli} \times 100\%$; $DSCR = \text{Operatsion sof pul oqimi} / \text{Qarz bo'yicha yillik to'lovlar}$; $\text{Kredit rentabelligi} = \text{Kredit bo'yicha sof daromad} / \text{Kreditning o'rtacha qoldig'i} \times 100\%$. NPLning pasayishi kredit portfeli sifati yaxshilanganini, DSCRning 1 dan yuqori bo'lishi, umumiy talqinda, qarz xizmatini pul oqimlari bilan qoplash imkoniyati mavjudligini, kredit rentabelligining riskka mos ijobiy darajasi esa bank uchun kredit operatsiyasining moliyaviy samaradorligini ifodalaydi.

Jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda bank tizimi kredit portfeli 326,4 trln so'mdan qariyb 604 trln so'mgacha kengayganini ko'rsatadi. Shu davrda NPL ulushi 2021-yil yakunidagi 5,2 foizdan 2025-yil yakunida 3,0 foizgacha pasaygan. Biroq 2024-yilda NPL hajmining 21,2 trln so'm va ulushining 4,0 foizgacha ko'tarilishi kredit hajmi o'sishi bilan bir qatorda portfel sifatini doimiy nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi. 2025-yilda NPL ulushining 3,0 foizgacha pasayishi kredit portfeli sifati bo'yicha ijobiy siljishni ifodalaydi, biroq kreditlash samaradorligini yakuniy baholashda NPL bilan bir qatorda pul oqimi qoplamasi, rentabellik va operatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur (4-jadval).

4-jadval


O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli va NPL dinamikasi (2021–2025-yillar yakuni holatiga)¹⁰

Yil	Jami kredit portfeli, trln so'm	NPL, trln so'm	NPL ulushi, %
2021	326,386	16,974	5,2
2022	390,049	13,992	3,6
2023	471,4	16,6	3,5
2024	533,121	21,185	4,0
2025	604,0	18,1	3,0

2021–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimining jami kredit portfeli 326,4 trln so'mdan 604,0 trln so'mgacha oshgan. Muammoli kreditlar hajmi 2024-yilda 21,2 trln so'm bilan eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa, 2025-yilda 18,1 trln so'mgacha kamaygan. Bu kreditlash hajmining barqaror o'sishi bilan birga, 2025-yilda kredit portfeli sifatida ijobiy tendensiya kuzatilganini ko'rsatadi (1-rasm).

⁹ Manba: muallif ishlanmasi.

¹⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Information on the types of loans" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



1-rasm. O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli va NPL dinamikasi (ikki o'qli diagramma)¹¹

2025-yil 1-dekabr holatiga jami kreditlar 595,3 trln so'mga yetib, bir yil ichida 13 foizga oshgan. Yuridik shaxslarga kreditlar 350,5 trln so'mdan 378,1 trln so'mga, tadbirkorlikni rivojlantirish kreditlari esa 19,1 trln so'mdan 20,5 trln so'mga oshgan. Ayniqsa, mikrokreditlarning 20 foiz o'sishi kichik biznes va o'zini o'zi band qilish segmentlarida moliyalashtirish instrumentlarining faollashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kredit hajmining o'sishi samaradorlikni avtomatik anglatmaydi; uni NPL, pul oqimi qoplamasi va riskka mos rentabellik bilan birgalikda baholash zarur (5-jadval).


5-jadval
Kredit turlari bo'yicha 2024-2025-yillardagi o'zgarish¹²

Ko'rsatkich	01.12.2024, trln so'm	01.12.2025, trln so'm	O'sish, %
Jami kreditlar	525,887	595,309	13
Yuridik shaxslarga kreditlar	350,536	378,147	8
Tadbirkorlikni rivojlantirish kreditlari	19,111	20,503	7
Mikrokreditlar	11,693	14,045	20

2024–2025-yillarda kreditlash hajmida ijobiy o'sish kuzatilgan. Eng yuqori o'sish mikrokreditlarda 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, jami kreditlar 13 foizga, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 8 foizga va tadbirkorlikni rivojlantirish kreditlari 7 foizga oshgan. Bu mikromoliyalashtirish segmentining boshqa kredit yo'nalishlariga nisbatan jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi (2-rasm).

11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2022. Toshkent: Markaziy bank, 2022. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/588298/> (accessed: 10.08.2026)., O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2023. Toshkent: Markaziy bank, 2023. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/846241/> (accessed: 10.08.2026)., O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Annual Report 2023. Toshkent: Markaziy bank, 2024. URL: <https://cbu.uz/en/publications/annual-report/> (accessed: 10.08.2026)., O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2025. Toshkent: Markaziy bank, 2025. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/2123884/> (accessed: 10.08.2026).

12 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on the Types of Loans. 23 December 2025. Toshkent: Markaziy bank, 2025. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3182886/> (accessed: 10.08.2026).



2-rasm. Kredit turlari bo'yicha 2024-2025-yillardagi o'sish sur'atlari¹³

Tadqiqotning ilmiy yangiligi tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini faqat kredit hajmi yoki NPL orqali emas, balki besh blok — risk, moliyaviy natija, operatsion samaradorlik, mijoz ko'rsatkichlari va qarz oluvchi biznesining natijasi — bo'yicha baholovchi integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirish bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv kreditning butun hayotiy siklini monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini yagona indikatorlar paneli asosida qabul qilish imkonini beradi.

- tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini risk, moliyaviy, operatsion, mijoz va biznes natijasi bloklari bo'yicha kompleks baholash yondashuvi taklif etildi;
- kredit qarorlarida an'anaviy moliyaviy hisobotlarni bank aylanmalari, tranzaksion va boshqa raqamli ma'lumotlar bilan to'ldirish zarurligi asoslandi;
- kredit arizalarini ko'rib chiqishda avtomatlashtirilgan skoring va raqamli kreditlash jarayonlarini kengaytirish yo'nalishlari belgilandi;
- qarz oluvchining risk profiliga muvofiq riskka asoslangan narxlash mexanizmini qo'llash taklif etildi;
- kreditdan keyingi monitoringni erta ogohlantirish indikatorlari asosida tashkil etish kredit portfeli sifatini oshirishning muhim omili sifatida asoslandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligi kredit hajmining o'sishi bilangina belgilanmasligini ko'rsatadi. Samarali kreditlash bank uchun maqbul risk va daromadlilikni, tadbirkor uchun esa moliyalashtirishning tezkorligi, maqbul qiymati va biznes ehtiyojiga mosligini ta'minlashi lozim.

Tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, qarz oluvchini baholashda pul oqimlariga asoslangan tahlilni kuchaytirish; ikkinchidan, raqamli skoring va avtomatlashtirilgan kredit qarorlarini kengaytirish; uchinchidan, riskka asoslangan narxlashni joriy etish; to'rtinchidan, kreditdan keyingi monitoringda erta ogohlantirish indikatorlaridan foydalanish; beshinchidan, tadbirkorlik subyektlarini faoliyat turi, hajmi va pul oqimi xususiyatlariga ko'ra segmentlash tavsiya etiladi.

Chora-tadbirlarning kompleks amalga oshirilishi kredit arizalarini ko'rib chiqish muddatini qisqartirish, bankning operatsion xarajatlarini optimallashtirish, muammoli kreditlarning yuzaga kelish ehtimolini pasaytirish va tadbirkorlik subyektlarining bank moliyaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

13 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Information on the types of loans" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th ed. Harlow: Pearson, 2022.
2. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. 6th ed. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall/Pearson, 2002.
3. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71, No. 3. P. 393–410. DOI: 10.1257/aer.71.3.393.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. Basel: Bank for International Settlements, 2000. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs75.htm> (accessed: 10.08.2026).
5. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. Basel: Bank for International Settlements, 2017. URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d424.htm> (accessed: 10.08.2026).
6. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions to Unlock Sources of Capital. Washington, D.C.: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/about/partners/the-world-bank-group-and-private-sector/smes> (accessed: 10.08.2026).
7. World Bank. Global Financial Development materials on SME finance and financial inclusion. Washington, D.C.: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/gfdr> (accessed: 10.08.2026).
8. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report. Washington, D.C.: IMF. URL: <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR> (accessed: 10.08.2026).
9. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
10. Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M. va boshqalar. Bank ishi. Toshkent, 2021.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF–5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2022. Toshkent: Markaziy bank, 2022. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/588298/> (accessed: 10.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2023. Toshkent: Markaziy bank, 2023. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/846241/> (accessed: 10.08.2026).
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Annual Report 2023. Toshkent: Markaziy bank, 2024. URL: <https://cbu.uz/en/publications/annual-report/> (accessed: 10.08.2026).
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2025. Toshkent: Markaziy bank, 2025. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/2123884/> (accessed: 10.08.2026).
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on the Types of Loans. 23 December 2025. Toshkent: Markaziy bank, 2025. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3182886/> (accessed: 10.08.2026).
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Financial Stability Report for 2025. Toshkent: Markaziy bank, 2026. URL: <https://cbu.uz/en/financial-stability/press-releases/4124468/> (accessed: 10.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>